

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH XUSUSIYATLARI

Muzaffarova Xayitgul, JDPI. Maxsus pedagogika kafedrası

Eshqulova Lola, Defektologiya yo'nalishi IV-kurs talabasi

Annotasiya. Maqolada alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi, shu jumladan ko'rishida kamchiliklari bo'lgan bolalar va ularni kamchiliklarini bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlar haqida fikr – mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar. Nogironlarni reabilitatsiya qilish, imkoniyati cheklangan, bola, maxsus maktab, korreksiya, anomaliya, korreksion pedagogika.

Alohida yordamga muxtoj bolalarning ta'limi, tarbiyasi va reabilitatsiyasi jarayonlarini isloh qilib borish rivojlanish darajasidan qat'iy nazar har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Jumladan, Respublikamizda nogironlarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish, tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23 modda) hamda davlatimiz tomonidan 1992 yil ratifikatsiya qilingan BMT ning "Bola xuquqlari to'g'risida"gi Konventsiyasi (23-modda)da nogiron bolalarning alohida parvarish, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish xuquqlariga egaligi e'tirof etilgan. Ma'lumki, hozirgi kunda bolalalikdan yoki hayoti davomida u yoki bu ta'sirlar sababli nogiron hisoblangan shaxslar ta'limda alohida e'tiborga muxtoj yoki imkoniyati cheklanganlar deb yurtimoqda. Bu toifa bolalar, o'smir va kattalarning ta'limi, tarbiyasi umumiy pedagogikaning barcha qonuniyatlariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida tadqiq qilinadi, rivojlanadi.

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning maqsadi nogironlarga to'laqonli turmush kechirish hamda o'z huquqlari va potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi ijtimoiy maqomini, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga va kasbiy faoliyatning har xil turlariga doir qobiliyatlarini tiklashdan iboratdir deb

ko'rsatilgan.¹ («O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunning 3-bob. Nogironlarni reabilitatsiya qilish, 12-modda. Nogironlarni reabilitatsiya qilishning maqsadi 6-bet).

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim berishning yangi shakllari va usullarini izlab topish va amalga oshirish bo’lg’usi pedagoglarni mukammal bilim va tajribaga ega bo’lishlarini taqoza etadi.

Xozirgi kunda davr talabiga ko’ra “Barkamol avlod tarbiyasi” masalasi ko’ndalang turgan bir vaqtda ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalarning o’rganish muammosi o’ta dolzarb sanaladi.

Anomaliyalar har xil bo’ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba’zilari bir qadar tuzatiladi, korrektsiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ya’ni kompensatsiyalanadi. Korrektsion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korrektsiyalab ham bo’lmaydi, masalan, tug’ma ko’rlik yoki karlik shular jumlasidandir.

Ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalarni har tomonlama o’rganish zaruriyati tug’ildi. Ularning ruhiyatini yaxshi bilish, pedagogik jarayonini samarali kechishini ta’minlaydi.

Nogiron, tug’ma kasalmand bolalar dunyoga kelishini ijtimoiy sabablarini o’rganish, uni oldini olish, ularning dardlariga malham bo’lish bu boradagi muammolarni hal etishdir. L. S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o’rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. U «Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari» kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini, korrektsiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish yo’llarini ko’rsatib berdi.

L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat «salbiy» balki «ijobiy» tomonlarini ham o’rgatib, aniqlab, shularga tayangan holda va potentsial qobiliyatni inobatga

1

olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U korreksion pedagogika sohasida katta zaruriy meros qoldirdi.

Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishladi. Bu olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari psixologiya va korreksion pedagogikaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini noto'g'ri tushunishga qarshi chiqdilar, «rivojlanishning to'xtash nazariyasi», «chegara» degeneratsiya nazariyasi», «ma'naviy defektli» kabi g'ayri ilmiy va reaksion nazariyalarni fosh etdilar.

Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy tomonlarini ham aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.

Ko'zi ojiz shaxslarni taraqqiyotining manbaalarini bilmay turib, ular ta'limiga yondosha olmaymiz. Ko'zi ojizlar ham sog'lom insonlar kabi yashashga, ilm olishga, ishlash va hayotda o'z o'rnini topishga xaqlidir. Davlatimiz siyosati, albatta, ko'zi ojiz insonlarni ham inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijobiy o'zgarishlarni olib kelmoqda. Chunki bizning ma'naviy merosimiz va muqaddas dinimizda komil inson tarbiyasi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan.

Ota onalar o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berib, voyaga yetkazsa, farzandining xayotga toza rux, olam – olam orzu intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, umri ma'noga to'ladi, xayotd armon qolmaydi.

Inson shaxsinig to'laqonli, atroflicha mukammal bo'lib, rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi darkor.

Aks holda shaxs bir butun holda me'yoriy rivojlanishi bo'lmasligi mumkin. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taasurotlarni qabul qilish bakli ularni taxlil qilish, faoliyatni nazorat qilishni ta'minlaydi. SHui ta'kidlash joizki, ko'rish analizatorining zararlanishi nsonni ruxiy jarayonlarining turli tomonlariga salbiy ta'sir etar ekan.

Olib borayotgan ishimizning dolzarbligi ko'rishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, nutq kamchiliklarini bartaraf etishning pedagogik texnologiyasini nazariy asoslash va ishlab chiqishdan iborat.

Ya'ni ko'zi ojiz bolalarda diqqat, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, hayol, tafakkur va nutq jarayonlari meyordan chetga chiqishi ko'zda tutiladi.

Ular atrof muxitni, undagi predmet xossalarini, voqealar mohiyatini tushinishida paypaslab sezish idroki katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalarning xotira jarayonlari olimlar tomonidan chuqur o'rganilmaganlifi, tadqiqotimizning dolzarbligini bildiradi.

L.S.Vigotskiy tomonidan, ko'rlar oltinchi sezgi (harakat) ga egaligi ko'rsatilib, u ularga predmetlarni masofada sezishga ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratadi. Ta'lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko'rlikni kompensasiya qilish bolada uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olish lozim. Ko'rlikni kompensasiyalash, deydi L.I.Solnseva, butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ichiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks etiradigan va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi. Zaif ko'ruvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda shuningdek maydon orientirovkasini olishda va harakatlenganda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalaniladi. Masalan, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir pedmetni ifodalaydigan hira-shira belgilarni payqamasdan qolishi mumkin. Maxsus ta'lim erta boshlangandanormal maydon va stereoknopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarni idrok etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

2. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni: “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – T.: Sharq, 1997.
4. R.SHomaxmudova “Ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalar inkluziv ta’limi” Toshkent YuNESKO 2005 yil (ilmiy maqola).
5. R.SHomaxmudova “Ko’zi ojiz kishilarni uy ro’zg’or tutishga o’rgatish”. Toshkent 1999 yil.
6. Internet ma’lumotlari. PY. [http // Special psypublika . PY](http://Specialpsypublika.PY). [http // revolution allbest. ru/ pedagogies // w.w.w.Kinder.by](http://revolutionallbest.ru/pedagogies//w.w.w.Kinder.by).
7. N.Abidova “Ko’rishga nuqsoni bo’lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari” (Respublika Ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to’plami) 2011 yil.
8. I.K.Xoliqov “Ko’zi ojiz bolalarni o’qitish uslubiy muammolari”. (Respublika Ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to’plami) 2011 yil.
9. Muzaffarova, X. (2020). Maktabgacha ta’lim jarayoniga multimedia texnologiyasini tatbiq etish. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Muzaffarova, X. (2021). HАRАKАT-TАYАNCH А’ZOLАRI JАRОНАТLANGАN BOLАLАR. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Muzaffarova, X. (2021). ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С НАРУШЕНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТА. *Scienceweb academic papers collection*.
12. Muzaffarova, X. (2020). Aqli zaif o’quvchilarning muloqot munosabatlarining pedagogik–psixologik asoslari. *Scienceweb academic papers collection*.
13. Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ БОЛАЛАР БИЛАН КОРРЕКЦИОН-РИВОЖЛАНТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР. *Scienceweb academic papers collection*.
14. Muzaffarova, X. (2020). Inklyuziv ta’lim-yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning muhim omili sifatida. *Scienceweb academic papers collection*.

15. Muzaffarova, X. (2021). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Muzaffarova, X. (2021). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган логопедик машғулотларни ўйинлар асосида ташкиллаштириш. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Muzaffarova, X. (2021). HORIJY MAMLAKATLARDA AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI. *Scienceweb academic papers collection*.
18. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
19. Muzaffarova, X. (2021). INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. *Scienceweb academic papers collection*.
21. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. *Scienceweb academic papers collection*.